



ISLOM TARIXI DAVRI TARIXSHUNOSLIGI

*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti
402-guruh talabasi - Abdumalikova Obida*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Islom tarixi davri tarixshunosligi borasida olib borilgan ilmiy ishlar, ularning tarix va tarixshunoslikdagi ahamiyati, bugungi kunda tariximizni o‘rganishda qay darajada ahamiyat kasb etishi kabi masalalarga to‘htaliladi.

Kirish: Moddiy ma’daniyat namunalarining paydo bo‘lishi insonlar hayotida qanchalik katta o‘rin tutgan bo’lsa, qo’lyozma va bosma kitoblarning vujudga kelishi ham insoniyat madaniyati taraqqiyotiga shunchalar katta ta’sir ko‘rsatdi. Markaziy Osiyo xalqlarining arablar bosqini arafasidagi holati va undan keyingi ahvoli haqida yuqorida tilga olingan arab manbalarida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. X asming ikkinchi yarmida arab tarixshunosligida yagona yoki takrorlanuvchi o‘ziga xos asarlar ham vujudga kelgan. Mazkur davrdagi asarlarda boy tarixiy-toponimik ma’lumotlar mavjud. Yuqorida sanab o‘tilgan arab manbalaridan tashqari, IX—XI asrlar yana ko‘plab sayohatnoma janridagi asarlar paydo bo‘ldi. Yaratilgan asarlar “Mashhur arab geograflari kutubxonasi”ni tashkil etgan. Mazkur davrda sayohat qilgan va o‘z asari bilan tarixda qolgan mashhur arab sayyoohlari qatoriga Ibn Xurdodbek, Ibn Rustam, Ibn Fadlan, al-Balxi, al-Fakih, Mas’udiy, asarlari juda muhimdir. Arab geografik asarlari va uning ahamiyati haqida I. Yu. Krachkovskiy bunday deb yozgan edi: “Ispaniyadan Turkistongacha bo‘lgan mamlakatlar va Hind tog‘i etaklaridagi aholi maskanlarini aniq sanab, cho‘l va madaniy joylarini tavsiflab, madaniy ekinlaring tarqalish ko‘lami, foydali qazilmalar o‘rnini ko‘rsatgan holda, fizik-geografik va ob-havo sharoitini, xalq turmushi, sanoati, madaniyati, tili, diniy ilmlarini ko‘rsatgan holda (ma’lumotlar xalifalik viloyatlari hududi bilan chegaralanib qolmasdan, balki greklarga tanish dunyodan ancha chetga chiqdi) u shunday keng, tugal ma’lumot beradiki, unga o‘xshashini bu davrda hech qayerda topib bo‘lmas edi”.

Mashhur sharqshunos Ye. Bertels Uyg‘onish davrining rivoji va uning Markaziy Osiyoga ta’sirini eng avvalo, xalq ommasining arab hukmronligiga qarshi olib borgan tinimsiz kurashlari natijasi bilan bog‘laydi. XIX asr ikkinchi yarmida tarixchi L. Ranke tarixiy tahlil va ilmiy tadqiqotning yangi uslublarini taklif qildi. U tarixchining shiori “Orqaga — manbalarga!” bo‘lishi kerak, degan xulosaga keldi.



Biroq, uning g‘oyalari milliy jihatdan chegaralanganligi va yevrotsentrizm manbasi bilan sug‘orilganligi o‘zining asarlarida keltirib o‘tadi. IX asrda Bag' doddha faoliyat ko‘rsatgan «Bayt ul-xikma.» Sharqning tong'ich akademiyalaridan sanalib, mazkur ilmiy dargohda ijod qilgan olimlarning aksar ko‘pi, Jumladan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Ahmad al-Marvaziy, Abbos al-Javharly va boshgalar Mavarounnahra Xorazm zaminidan yetishib chiqgan taniqli allomalar va mutafakkirlar edi. Ular tomonidan yaratilgan bebaho asarlar va ilmiy kashfiyotlar keyinchalik Xorazm Ma mun akademiyasi olimlar Jamoasining nazariy va amaliy ilmlar sohasida erish gan yutuqlari uchun ma naviy asos bo‘lgan edi. Beruniy, Abu Nasr ibu Iroq, Ibn Sinolar o‘z tadqiqotlarida Bag‘doddagi «Bayt ul-hikma» olimlari, Hindiston va antik Yunon olimlari va mutafakkirlari asarlaridan keng foydalanganliklarini mammuniyat bilan qayd etadilar. Xususan Aristotel, Ptolomey, Yevklid, Gippokrat, Galen, Pifagor kabi qadigi Yunon mutafakkirlarining nomlari xurmat bilan tilga olinadi. Darhaqiqat, eldoshimiz Muhammad al-Xorazmiy (783-850) «Bayt ul-xikma» ning yetakchi olimi,- ilmiy rahbari, fanda -yangi yunalish va maktab yaratgan allomalaridan edi. U astronomiya, matematika, geografiya, tarix va boshqa fanlar sohasida o‘nlab asarlar meros qoldirgan. Uning «Al - jabr val-muqobola» kitobi jahonda birinchi bo‘lib algebra faniga asos bo‘lgan asarlardandir. Olim matematika fanida o‘nlik pozitsion hisoblash sistemasini yaratdi. Shu asosda u qo’shish, ayirish, ko‘paytirish, va bo‘lish amaliyotining qulay va oson yo llarini kashf etib, Sharq va Yevropani hisoblash tizimiga o’rgatdi. Beruniyning guvohlik berishicha IX-X asrlarda O'rta Osiyoning bir qator shaharlarida Buxoro, Samargand, Marv, Kat va Gurganjda ko‘plab nodir qo‘lyozma asarlarni o‘ziga jamlagan o‘nlab kutubxonalar yuzaga kelgan bo‘lib, ular o‘z davrining nufuzli madaniyat markazlari sanalgan, Marvda masjid qoshidagi qadimgi kutubxonada 12 mingdan ortiq turli fanlarga doir kitoblar bo‘lgan. Shuningdek Beruniy O'rta Osiyoning yuqoridagi kabi shaharlarida bunyod etilgan rasadxonalarda olimlar muntazam ravishda astronomik kuzatishlar olib borganliklari haqida ma'lumot beradi. Muxtasar qilib aytganda IX-XIII asrlarda Shargda yuz bergen madaniy uyg'onish butun O'rta Osiyo, Xorazm, Eron, Xuroson, arab mamlakatlari Hindiston xatto qadimgi Yunoniston va Italiyaning yuksak ilmiy-madaniy merosiga borib taqalganligi ma'lum.

Xulosa o‘rnida, ushbu davrda yozilgan asarlaming har biri Markaziy

Osiyo tarixini yoritishdagi o‘mi beqiyosligini ta’kidlab o‘tish joiz. Ulaming manbaviy qiymati juda yuqori bo‘lib, chuqur va keng ko‘lamdagagi tadqiqotlar uchun asos bo‘la oladi. Shu sababli, bugungi kunda ham ushbu qo‘yozmalarga bo‘lgan



qiziqish yuqoriligidagi qolmoqda. Ulami chuqur o‘rganish Markaziy Osiyo xalqlari tarixini xolisona tiklashda ahamiyatlidir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Moziydan taralgan ziyo. Imom Al-Buxoriy. T. 1998.
2. Sa’dullaev A, Sotliqov A. Xorazm Ma’ mun Akademiyasi. Urganch. 2005.
3. Sulaymonova F. Sharq va G’arb. T. 1997.
4. Xayrullaev M. O’rta Osiyoda Ilk uyg'onish davri madaniyati. T. 1994